QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
FILOLOGIYA
PHILOLOGY
https://doi.org/10.70728/b.series.fil.v08.i10.101

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA REFERENSIYANING IFODA USULLARI: QIYOSIY-SEMANTIK TAHLIL

Qudratov Ulug‘bek Beknazar o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti to‘rtinchi mintaqaviy hudud 3-son JIEK ingliz tili o‘qituvchisi
e-mail: ukudratov90@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o‘zbek tillarida referensiyaning ifoda usullari qiyosiy-semantik jihatdan tahlil qilinadi. Referensiyani ifodalovchi vositalar – artikl, ko‘rsatish va egalik shakllari, kelishik qo‘shimchalari, sanoq son, so‘z tartibi va shaxs-son qo‘shimchalari – aniqlik, noaniqlik, umumiy referensiya, deyksis va anafora kabi referensial vazifalar asosida taqqoslanadi. Ingliz tilida aniqlik va noaniqlik ma’nolari artikl tizimi orqali grammatik jihatdan majburiy ifodalanishi, o‘zbek tilida esa tushum kelishigi, bir so‘zi, ko‘rsatish va egalik shakllari hamda gapdagi o‘rin o‘rtasida taqsimlanishi ko‘rsatiladi. Natijalar tarjima va ingliz tilini o‘qitishda referensial xatolarning oldini olish uchun foydalanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: referensiya, aniqlik, noaniqlik, artikl, tushum kelishigi, deyksis, anafora, qiyosiy semantika.

Аннотация. В статье на материале английского и узбекского языков сопоставительно-семантически анализируются способы выражения референции. Средства, участвующие в референции, – артикль, указательные и притяжательные формы, падежные показатели, числительное, порядок слов и личные окончания – сопоставляются по референциальным функциям: определённость, неопределённость, родовая референция, дейксис и анафора. Показано, что в английском языке определённость и неопределённость грамматикализованы в системе артиклей, тогда как в узбекском они распределены между винительным падежом, словом bir, указательными и притяжательными формами и позицией в предложении. Результаты могут быть использованы в переводе и в обучении английскому языку.

Ключевые слова: референция, определённость, неопределённость, артикль, винительный падеж, дейксис, анафора, сопоставительная семантика.

Abstract. The article provides a comparative semantic analysis of the means of expressing reference in English and Uzbek. The devices involved in reference – articles, demonstrative and possessive forms, case markers, the numeral, word order and person-number suffixes – are compared across the referential functions of definiteness, indefiniteness, generic reference, deixis and anaphora. It is shown that in English definiteness and

indefiniteness are grammaticalised in the article system, whereas in Uzbek they are distributed among the accusative case, the word bir, demonstrative and possessive forms and sentence position. The results can be applied in translation and in teaching English.

Keywords: reference, definiteness, indefiniteness, article, accusative case, deixis, anaphora, comparative semantics.

KIRISH

Referensiya – til birligining nutqda muayyan obyekt yoki obyektlar to‘plamiga yo‘naltirilishi, ya’ni ifoda bilan voqelik o‘rtasidagi nutqiy aloqadir. So‘zning lug‘aviy ma’nosi til tizimiga tegishli bo‘lsa, referensiya nutq vaziyatida amalga oshiriladi [1]. P. Strawson fikricha, biror narsaga "ishora qiladigan" narsa ifoda emas, balki uni muayyan vaziyatda qo‘llayotgan so‘zlovchidir [2]; J. Searle esa referensiyani nutq aktining alohida tarkibiy qismi sifatida talqin qilgan [3].

Muloqot muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun tinglovchi so‘zlovchi qaysi obyektni nazarda tutayotganini aniqlay olishi kerak. Har bir til bunga yordam beradigan vositalar to‘plamiga ega, biroq bu vositalarning tarkibi va grammatik maqomi turli tillarda har xil. Ingliz tilida aniqlik va noaniqlik ma’nolari artikl tizimi orqali ifodalanadi: *the book – a book*. O‘zbek tilida artikl mavjud emas [6], shunga qaramay *Men kitobni o‘qidim* va *Men kitob o‘qidim* jumlalari referensial jihatdan farq qiladi: birinchisida tinglovchiga ma’lum, muayyan kitob nazarda tutiladi, ikkinchisida esa e’tibor kitobning o‘ziga emas, kitob o‘qish harakatiga qaratiladi. Demak, o‘zbek tilida shu ma’no boshqa vositalar – kelishik shakli, aniqlovchilar, so‘z tartibi orqali beriladi.

Bunday farqlar tarjimada va ingliz tilini o‘rgatishda muayyan qiyinchiliklar tug‘diradi: artikl tizimiga ega bo‘lmagan til egasi ingliz tilida artikl tanlovini ongli ravishda amalga oshirishi lozim, tarjimon esa artiklsiz tilga o‘girganda aniqlik ma’nosini boshqa vositalar bilan qayta tiklashga majbur bo‘ladi.

Tadqiqotning maqsadi – ingliz va o‘zbek tillarida referensiyaning ifoda usullarini qiyosiy-semantik jihatdan tavsiflash. Vazifalar: referensial vazifalarni (aniqlik, noaniqlik, umumiy referensiya, deyksis, anafora) ajratish; har bir vazifa uchun ikki tildagi grammatik va leksik vositalarni aniqlash; vositalarning tarkibi va grammatik maqomidagi farqlarni ko‘rsatish; natijalarning tarjima va o‘qitish uchun ahamiyatini asoslash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Referensiya muammosi dastlab mantiq falsafasida shakllangan. B. Rassel aniq tavsifiy ifodalarni (*the king of France*) mavjudlik va yagonalik haqidagi mulohazalar sifatida tahlil qilgan [7], P. Strawson esa bunday ifodalar yordamida referensiya qilish so‘zlovchining nutqiy harakati ekanini asoslagan [2]. K. Donnellan aniq tavsifning referensial va atributiv qo‘llanishini farqlagan [8], S. Kripke atoqli otlarni "qat’iy designatorlar" sifatida tavsiflagan [9]. Zamonaviy sharh B. Abbott asarida berilgan [18].

Aniqlik kategoriyasi bo‘yicha J. Xokins ifoda so‘zlovchi va tinglovchi uchun umumiy bo‘lgan kontekstda yagona aniqlanadigan obyektga ishora qilishini nazarda tutuvchi "joylashish nazariyasi"ni ishlab chiqqan [4]. I. Xaym aniq va noaniq ifodalarning oldindan

ma’lumlik shartiga asoslangan talqinini bergan: aniq ifoda nutqda allaqachon mavjud referentni ko‘rsatadi, noaniq ifoda esa yangi referentni kiritadi [10]. K. Layons aniqlik kategoriyasini tillararo nuqtai nazardan o‘rganib, artikli bo‘lmagan tillarda ham bu ma’no boshqa vositalar bilan ifodalanishini ko‘rsatgan [5].

Referensial vositalarni referentning ongdagi holati nuqtai nazaridan tasniflovchi yondashuvlar ham mavjud. J. Gundel, N. Xedberg va R. Zaxarski "bilish maqomlari ierarxiyasi"ni taklif qilgan: olmosh, ko‘rsatish olmoshi, aniq va noaniq ifodalar referentning tinglovchi ongidagi maqomiga mos ravishda tanlanadi [11]. M. Ariel ifoda shakli referentning ongdagi "erishuvchanligi" darajasini ko‘rsatishini asoslagan: erishuvchanlik yuqori bo‘lsa, ifoda qisqa va kam ma’lumotli bo‘ladi [12]. U. Cheyf ma’lumlik, aniqlik va mavzu tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatgan [13].

Turkiy tillar materialida M. Enç turk tilida tushum kelishigi shakli obyektning xoslik (specificity) ma’nosi bilan bog‘liqligini ko‘rsatgan [14]; Y. Kornfilt ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘ldiruvchining shaklini xoslik bilan bog‘lab tavsiflagan [15]. O‘zbek tilshunosligida tushum kelishigi qo‘shimchasining aniq obyektni ifodalashi A. N. Kononov grammatikasida va zamonaviy darsliklarda qayd etilgan [16; 6]. Ingliz tilidagi artikl va umumiy referensiya tizimi R. Kvirk va hammualliflar grammatikasida batafsil tavsiflangan [17].

Rus tilshunosligida referensiya muammosi N.D. Arutyunova va Ye.V. Paducheva ishlarida o‘rganilgan [19; 20], o‘zbek tilshunosligida semantik tahlil masalalari Sh. Safarov asarlarida yoritilgan [21]; artiklsiz tilga o‘girishda aniqlik ma’nosini ifodalash masalasi esa tarjimashunoslikda L.S. Barxudarov tomonidan ko‘rib chiqilgan [22]. Shunga qaramay, bizga ma’lum bo‘lishicha, ingliz va o‘zbek tillaridagi referensial vositalarni vazifaviy-semantik asosda umumlashtiruvchi qiyosiy tadqiqotlar yetarli emas.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy-semantik tahlil, vazifaviy-semantik tavsif, kontekstual tahlil va tarjima tahlili usullaridan foydalanildi. Referensial vazifalar (aniqlik, noaniqlik, umumiy referensiya, deyksis, anafora) tayanch mezon sifatida olindi va har bir vazifa uchun ikki tildagi vositalar aniqlandi. Qiyoslash shakliy o‘xshashlik emas, bir xil referensial vazifani bajarish asosida olib borildi. Tarjima tahlilida ingliz jumlalarining o‘zbekcha muvofiqlarida referensial ma’no qaysi vositalar bilan qayta tiklanishi kuzatildi. Til materiali grammatik qo‘llanmalarda keltirilgan hamda muallif tomonidan tuzilgan misollardan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijasida ikki tilda referensiyani ifodalovchi vositalar 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval. Referensiyaning ifoda vositalari

Referensial vazifa	**Ingliz tili vositalari**	**O‘zbek tili vositalari**	**Misol (ingl. – o‘zb.)**
Aniq referensiya	the artikli; this/that; egalik olmoshlari	tushum kelishigi (-ni); egalik qo‘shimchalari; shu, o‘sha; gap boshidagi o‘rin	*the book – kitobni, kitobim*

Referensial vazifa	Ingliz tili vositalari	O‘zbek tili vositalari	Misol (ingl. – o‘zb.)
Noaniq referensiya	a/an artikli; some; nol artikl	bir; biror, qandaydir; yalang‘och ot; kesim oldidagi o‘rin	*a man – bir kishi*
Noma’lum shaxs yoki narsa	someone, something	kimdir, nimadir	*someone – kimdir*
Umumiy referensiya	the + birlik; a + birlik; nol artikl + ko‘plik	yalang‘och ot; ko‘plik qo‘shimchasi (-lar)	*Lions are predators – Sher yirtqich hayvon*
Deyksis	this – that	bu – shu – o‘sha	*that house – o‘sha uy*
Anafora (shaxs)	he, she, it (jins va son bo‘yicha); ega majburiy	u (jinssiz); shaxs-son qo‘shimchalari; ega ko‘pincha tushiriladi	*I read it – O‘qidim*
Aniq tavsifiy ifoda	the + otdan iborat birikma	izofa: qaratqich + qaralmish (-i)	*the capital of Uzbekistan – O‘zbekistonning poytaxti*

1. Aniq referensiya. Ingliz tilida aniq referensiya asosan *the* artikli, ko‘rsatish olmoshlari (*this*, *that*) va egalik olmoshlari (*my*, *your*) orqali ifodalanadi. Artikl tanlovi yagona sanaladigan otlarda majburiy: *the book* – aniq, *a book* – noaniq; sanalmaydigan otlar va ko‘plikda esa nol artikl qo‘llanadi (*books*, *water*) [17]. O‘zbek tilida aniqlikning maxsus grammatik ko‘rsatkichi yo‘q, biroq bir necha vosita bu vazifani qisman bajaradi. Birinchisi – tushum kelishigi qo‘shimchasi: *Men kitobni o‘qidim* (*I read the book*) jumlasida kitob kontekstda ma’lum, muayyan obyekt sifatida talqin qilinadi, *Men kitob o‘qidim* jumlasida esa obyekt muayyan emas, harakatning umumiy turi nazarda tutiladi [14; 15; 16]. Ikkinchisi – egalik qo‘shimchalari: *kitobim* (*my book*) odatda aniqlangan obyektni bildiradi. Uchinchisi – ko‘rsatish olmoshlari: *shu kitob*, *o‘sha kitob*. To‘rtinchisi – gapdagi o‘rin: gap boshida kelgan ega, odatda, ma’lum, aniq referent sifatida talqin qilinadi. Shunday qilib, ingliz tilida aniqlik asosan bitta vositaga – artiklga yuklangan bo‘lsa, o‘zbek tilida u bir necha vositaga taqsimlangan.

2. Noaniq referensiya. Ingliz tilida noaniq yagona referent *a/an* artikli bilan, noma’lum miqdor yoki ko‘plik esa *some* yoki nol artikl bilan ifodalanadi. O‘zbek tilida bu vazifani *bir* so‘zi, *biror*, *qandaydir*, *birorta* kabi so‘zlar hamda kelishik qo‘shimchasiz yalang‘och ot bajaradi: *Sizni bir kishi so‘rab keldi – A man asked for you*. *Bir* so‘zi sanoq son va noaniqlik ko‘rsatkichi vazifalarini qo‘shib bajaradi, shu sababli *a/an* artikli bilan to‘liq mos kelmaydi: *a* son jihatidan betaraf bo‘lib, umumiy ma’noda ham qo‘llanadi (*A dog is a loyal animal*), o‘zbek tilida esa bunday holatda *bir* odatda ishlatilmaydi. Noma’lum shaxs yoki narsa ma’nosi ingliz tilida *someone*, *something*, o‘zbek tilida *kimdir*, *nimadir* olmoshlari bilan ifodalanadi, bu juftliklarda katta nomuvofiqlik kuzatilmaydi.

3. Umumiy referensiya. Ingliz tilida umumiy (generik) ma’no uch usulda berilishi mumkin: *The lion is a predator*, *A lion is a predator*, *Lions are predators* [17]; bu usullar

uslubiy va pragmatik jihatdan farqlanadi. O‘zbek tilida bu vazifani, odatda, son va aniqlik jihatidan betaraf bo‘lgan yalang‘och ot yoki ko‘plik qo‘shimchali ot bajaradi: *Sher – yirtqich hayvon, Sherlar yirtqich hayvonlardir*. Demak, ingliz tilida grammatik tanlov sifatida namoyon bo‘ladigan farq o‘zbek tilida kontekst va kesimning xususiyatiga bog‘liq bo‘lib qoladi.

4. Deyksis va anafora. Ko‘rsatish olmoshlari tizimi ikki tilda farq qiladi: ingliz tilida ikki a’zoli (*this – that*), o‘zbek tilida esa *bu, shu, o‘sha* kabi ko‘p a’zoli. *Bu* yaqin obyektni, *o‘sha* uzoqroq yoki tinglovchiga ma’lum obyektni bildiradi, *shu* esa ko‘pincha nutqda allaqachon tilga olingan yoki aynan nazarda tutilgan obyektga ishora qiladi. Anafora vositalari ham farqlanadi. Ingliz tilida olmosh jins va son bo‘yicha o‘zgaradi (*he, she, it*) va ega majburiy ravishda ifodalanadi. O‘zbek tilida *u* olmoshi jins ko‘rsatmaydi, shaxs ma’nosi esa fe’ldagi shaxs-son qo‘shimchasi orqali ifodalangani uchun ega ko‘pincha tushirib qoldiriladi: *Kitobni o‘qidim – I read the book. She told him that he was late* jumlasida olmoshlarning jinsi referentlarni ajratishga yordam beradi; o‘zbekcha *U unga kechikkanini aytdi* jumlasida esa referentlarni, asosan, kontekst aniqlaydi. Ariel nazariyasi nuqtai nazaridan tushirib qoldirilgan ega referentning erishuvchanligi eng yuqori bo‘lgan holatlarda qo‘llanadi [12].

5. Aniq tavsifiy ifodalar va atoqli otlar. Ingliz tilida aniq tavsifiy ifoda *the* artikli bilan quriladi: *the capital of Uzbekistan*. O‘zbek tilida bunday ifoda izofa (qaratqich–qaralmish) birikmasi orqali beriladi: *O‘zbekistonning poytaxti*; qaralmish qismidagi egalik qo‘shimchasi (-i) ifodani aniqlangan qiladi. Atoqli otlar ikkala tilda ham referentni bevosita nomlaydi [9], biroq ingliz tilida ayrim atoqli otlar artikl bilan qo‘llanadi (*the Thames, the Alps, the United States*), o‘zbek tilida esa bunday shakliy belgi mavjud emas.

6. So‘z tartibi va axborot tuzilishi. Ingliz tilida so‘z tartibi nisbatan qat’iy bo‘lgani uchun aniqlik ma’nosi artikl bilan beriladi: *The boy is at the door – A boy is at the door*. O‘zbek tilida esa referensial ma’no gapdagi o‘rin bilan ham ifodalanadi. *Bola eshik oldida turibdi* jumlasida ega gap boshida kelib, ma’lum, aniq referentni bildiradi; *Eshik oldida bir bola turibdi* jumlasida esa yangi, noaniq referent kesim oldida, mantiqiy urg‘u o‘rnida keladi [13]. Xuddi shuningdek, *There is a book on the table* jumlasining o‘zbekcha muvofig‘i *Stol ustida kitob bor* bo‘lib, *kitob* so‘zi kesimdan oldin joylashadi, *The book is on the table* esa *Kitob stol ustida* ko‘rinishida beriladi. Ingliz tilidagi referensial ma’noning o‘zbek tilida qayta ifodalanishi 2-jadvalda umumlashtirilgan.

2-jadval. Ingliz tilidagi referensial ma’noning o‘zbek tilida qayta ifodalanishi

Ingliz jumlasi	**O‘zbekcha muvofiq**	**Referensial ma’no va vosita**
I read the book.	Men kitobni o‘qidim.	aniq obyekt – tushum kelishigi
I read a book.	Men bir kitob o‘qidim.	noaniq yagona obyekt – bir so‘zi
I read books.	Men kitob o‘qiyman.	noaniq, umumiy – yalang‘och ot
The boy is at the door.	Bola eshik oldida turibdi.	aniq ega – gap boshidagi o‘rin
A boy is at the door.	Eshik oldida bir bola turibdi.	noaniq ega – bir va kesim oldidagi o‘rin

Ingliz jumlasi	O‘zbekcha muvofiq	Referensial ma’no va vosita
Lions are predators.	Sherlar yirtqich hayvonlardir.	umumiy referensiya – ko‘plik qo‘shimchasi

MUHOKAMA

Tahlil ikkala tilda referensial vazifalar bir xil, farq esa vositalarning tuzilishida ekanini ko‘rsatadi. Ingliz tilida aniqlik va noaniqlik ma’nolari yagona grammatik kategoriya – artikl orqali ifodalanadi va yagona sanaladigan ot qo‘llanganda majburiydir. O‘zbek tilida esa ular bir necha vosita – kelishik, sanoq son, ko‘rsatish va egalik shakllari, so‘z tartibi o‘rtasida taqsimlangan va ko‘pincha ixtiyoriydir; ularning har biri referensiyaning faqat bir qismini qoplaydi. Shu sababli artikl va o‘zbek tilidagi vositalar o‘rtasida birma-bir moslik yo‘q: tushum kelishigi aniq artikl bilan faqat qisman mos keladi, chunki u aniqlik bilan birga obyektning xoslik ma’nosi va sintaktik rolini ham bildiradi; *bir* esa noaniq artikl bilan qisman mos keladi, chunki u sanoq son ma’nosini ham saqlaydi.

Kognitiv-pragmatik nuqtai nazardan ikkala tilda ham referentning ongdagi maqomiga qarab turlicha shakl tanlanadi: eng yuqori maqomda olmosh yoki tushirib qoldirilgan ega, keyingi bosqichda ko‘rsatish olmoshi, so‘ngra aniq ifoda, yangi referent uchun esa noaniq ifoda qo‘llanadi [11; 12]. Farq shundaki, ingliz tilida bu bosqichlar artikl va olmosh shakllarining qat’iy tanlovi bilan, o‘zbek tilida esa ko‘proq kontekst va so‘z tartibi bilan farqlanadi.

Amaliy jihatdan bu natijalar ikki yo‘nalishda muhim. Birinchidan, ingliz tilini o‘rgatishda o‘zbek tilida artikl yo‘qligi sababli artiklni tushirib qoldirish yoki noto‘g‘ri tanlash (masalan, *I read book*) holatlarini kutish mumkin. Shu sababli artiklni o‘rgatishda uni o‘zbek tilidagi bir necha vosita bilan qiyoslab, *kitobni o‘qidim – kitob o‘qidim* kabi kontrastli juftliklardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, tarjimada aniqlik ma’nosini yo‘qotmaslik uchun tarjimon ingliz tilidagi artikl tanlovini o‘zbek tilida kelishik, *bir* so‘zi yoki so‘z tartibi bilan qayta tiklashi lozim; artiklsiz tilga o‘girishda bu masala tarjimashunoslikda alohida e’tibor talab qiluvchi muammo sifatida qaralgan [22].

Tadqiqot grammatik qo‘llanmalar va tuzilgan misollarga asoslangan; kelgusida natijalarni korpus materiallari va eksperimental ma’lumotlar bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, ingliz va o‘zbek tillarida referensial vazifalar (aniqlik, noaniqlik, umumiy referensiya, deyksis, anafora) umumiy, ammo ularni ifodalash vositalari turlicha: ingliz tilida aniqlik va noaniqlik artikl tizimiga asoslangan bo‘lsa, o‘zbek tilida bu ma’no tushum kelishigi, *bir* so‘zi, ko‘rsatish va egalik shakllari hamda gapdagi o‘rin o‘rtasida taqsimlangan.

Ikkinchidan, ingliz tilida referensial ma’noni ifodalash grammatik jihatdan majburiy, o‘zbek tilida esa ko‘pincha ixtiyoriy va kontekstga bog‘liq. Uchinchidan, ko‘rsatish olmoshlari tizimi (ikki a’zoli va ko‘p a’zoli) hamda olmoshlarning jins va shaxs kategoriyalari anafora

vositalarida farq hosil qiladi. To‘rtinchidan, bu farqlar ingliz tilini o‘qitishda artikl xatolarining oldini olish va tarjimada aniqlik ma’nosini qayta tiklash uchun hisobga olinishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lyons J. Semantics. Vol. 1–2. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977.

2. Strawson P.F. On Referring // Mind. – 1950. – Vol. 59, No. 235. – P. 320–344.

3. Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.

4. Hawkins J.A. Definiteness and Indefiniteness: A Study in Reference and Grammaticality Prediction. – London: Croom Helm, 1978.

5. Lyons C. Definiteness. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999.

6. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.

7. Russell B. On Denoting // Mind. – 1905. – Vol. 14, No. 56. – P. 479–493.

8. Donnellan K.S. Reference and Definite Descriptions // The Philosophical Review. – 1966. – Vol. 75, No. 3. – P. 281–304.

9. Kripke S. Naming and Necessity. – Cambridge (MA): Harvard University Press, 1980.

10. Heim I. The Semantics of Definite and Indefinite Noun Phrases. – New York: Garland, 1988.

11. Gundel J.K., Hedberg N., Zacharski R. Cognitive Status and the Form of Referring Expressions in Discourse // Language. – 1993. – Vol. 69, No. 2. – P. 274–307.

12. Ariel M. Accessing Noun-Phrase Antecedents. – London: Routledge, 1990.

13. Chafe W.L. Givenness, Contrastiveness, Definiteness, Subjects, Topics, and Point of View // Subject and Topic / ed. by C.N. Li. – New York: Academic Press, 1976. – P. 25–55.

14. Enç M. The Semantics of Specificity // Linguistic Inquiry. – 1991. – Vol. 22, No. 1. – P. 1–25.

15. Kornfilt J. Turkish. – London: Routledge, 1997.

16. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1960.

17. Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A Comprehensive Grammar of the English Language. – London: Longman, 1985.

18. Abbott B. Reference. – Oxford: Oxford University Press, 2010.

19. Арутюнова Н.Д. Лингвистические проблемы референции // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XIII. – М.: Радуга, 1982. – С. 5–40.

20. Падучева Е.В. Высказывание и его соотнесенность с действительностью. – М.: Наука, 1985.

21. Safarov Sh. Semantika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013.

22. Бархударов Л.С. Язык и перевод: вопросы общей и частной теории перевода. – М.: Международные отношения, 1975.